

**1-VARIANT**

1. Qaysi davrga kelib O'rtta Osiyoning janubida sug'orma dehqonchilik vujudga keldi.  
 A) mil. avv. I ming yillikda B) mil. avv. II ming yillikda  
 C) mil. avv. III ming yillikda D) mil. avv. IV ming yillikda
2. Qaysi davrdan O'rtta Osiyoda sopol idishlar sirti turli naqshlar bilan bezatila boshlangan?  
 A) neolit B) eneolit C) bronza D) temir
3. Yomon ishlari uchun odamlarni sud qilgan, oliy hakam hisoblangan Akkad ilohini belgilang.  
 A) Sina B) Shamash C) Ea D) Ishtar
4. Mil avv XI asrda tashkil topgan Isroil davlati falastinni qaysi qismida vujudga kelgan?  
 A) Janubiy B) G'arbiy C) sharqiy D) Shimoliy
5. Quyidagi manzilgohlarning hududiy jihatdan joylashuvi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 a) Zamonobob b) Uzunqir c) Qiziltepa d) Ko'zaliqir
- 1) Qashqadaryoda 2) Surxondaryoda 3) Xorazmda 4) Buxoroda  
 A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d B) 2-c; 3-d; 4-a; 1-b C) 2-c; 3-a; 4-d; 1-b D) 4-d; 3-a; 2-b; 1-c
6. Qadimgi Yunonistonda adabiyot o'qitilib, she'r yozish va musiqa o'rgatiladigan o'quv dargohi nima deyilgan?  
 A) Stil B) Palestra C) Kogorta D) Periyek
7. Salavkiylar davlatidagi yirik shaharlar va madaniy markazlarni belgilang.  
 A) Baqtra, Maroqand, Termiz B) Xorazm, Zarmas, Marv  
 C) Damashq, Suza, Persopol D) Sarda, Xorazm, Ekbatan
8. Eng qadimgi yozuvlardan biri bo'lgan oromiy yozuvi qayerda paydo bo'lgan?  
 A) Old Osiyoda B) O'rtta Osiyoda  
 C) G'arbiy Osiyoda D) Kichik Osiyoda
9. Qanday aybi uchun Spartak Kapuyadagi gladiatorlar maktabiga jo'natilgan edi?  
 A) Imperatorga suyuqasd uyishtirgani uchun  
 B) rim fuqarosi bo'lmagani uchun  
 C) armiyada xizmat qilishdan bosh tortgani uchun  
 D) hoinlik qilgani uchun
10. Ilk o'rtta asrlarda O'rtta Osiyoda nasronilik markazi hisoblangan joyni aniqlang.  
 A) Koson shahri B) Anfor tumani  
 C) Urgut tumani D) Turfan shahri
11. O'rtta asrlarda shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan mudofaa inshooti - anhor nima deb nomlangan?  
 A) qaznoq B) shinak C) xandaq D) band
12. Venetsiyadagi Dojlar saroyi qaysi memorchilik uslubida qurilgan?  
 A) roman B) gotik S) arab D) vizantiya
13. G'arbiy turk xoqonligida mahalliy hokimlar ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida . . .  
 A) ma'muriy islohot o'tkazilgan  
 B) xo'jalikni rivojlantirishga e'tibor berildi  
 S) hokimlarga xoqonlikning "yabg'u" unvoni berildi  
 D) hokimlar ustidan harbiy nazorat kuchaytirildi
14. Ma'lumki, xalifa Umar ibn Abdulaziz murakkab vaziyatni hisobga olib, bo'ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'lgan. U . . .  
 A yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy islohot o'tkazish to'g'risida farmon berdi.  
 B hukmdorlarni mahalliy aholidan tayinladi, soliqlarning katta qismini umuman bekor qildi.  
 C Movarounnahr va Xuroson viloyatlariga vaqtincha bo'lsa-da, mustaqillik berdi.  
 D barcha viloyatlarda pul islohotini o'tkazib, savdo-sotiqni bir tizimga keltiruvchi ko'plab farmonlar qabul qildi.
15. Chingizhon tomonidan naymanlar qachon bo'y sundirilgan?  
 A) 1206-yil B) 1207-1208-yillar  
 C) 1211-1215-yillar D) 1219-yil

16. Mo'g'ul hukmdorlari ichida birinchi bo'lib o'z qarorgohini Mavorounnahrda ko'chirgan hukmdorni aniqlang?  
 A) Kebekhon B) Munke C) Masudbek D) Chig'atoy
17. 1449-yil oktabrda mag'lubiyatga uchragan Mirzo Ulug'bekni shaharga kiritmaslik maqsadida Samarqand darvozalari kim tomonidan berkitib qo'yildi?  
 A) Muhammad Miskin B) Abdulaziz  
 C) Alouddavla D) Mironshoh Qavchin
18. Amir Temur o'zining besh yillik yurishlari davrida egallagan hududlarni aniqlang.  
 1. Gurjiston 2. G'arbiy Eron 3. Armaniston 4. Iroqi Ajam 5. Kavkaz 6. Hindiston  
 A) 1; 4; 6 B) 2; 3; 5 C) 1; 3; 6 D) 2; 4; 5
19. Vizantiya imperiyasi qulagandan bir yil o'tgach . . .  
 A) Hidistonda Lodiylar sulolasi davri boshlandi  
 B) Abulqosim Bobur Movarounnahrda bostirib kirdi  
 C) Abu Said temuriylar saltanatining ikki qismini birlashtirdi  
 D) Angliyada qizil va aq gullar urishi boshlandi
20. Hindistonda qachon yer mulkchilik munosabatlari vujudga keladi?  
 A) III-IV asrlardan B) V-VI asrlardan  
 C) VI-VII asrlardan D) IV-V asrlardan
21. Hokimini "dengiz ho'jayini" deb nomlagan Kalikut shahri Hindistonning qaysi qismida joylashgan?  
 A) sharqi B) shimoli  
 C) janubi D) g'arbi
22. Qadimgi tarixiy viloyatlardan bo'lgan So'g'd xozirgi qaysi hudutlarga to'g'ri keladi?  
 A) Qashqadaryo va Surxandaryo vodiysi  
 B) Amudaryoning quyi va o'rtta oqimi  
 S) Zarafshon va Qashqadaryo vohasi  
 D) Janubiy O'zbekiston va Janubiy Tojikiston
23. Fridrix II german kinyazlari qiroli deb e'lon qilingandan 30 yil o'tib . . .  
 A) Mo'gullar tomonidan Kiyev egallandi  
 B) Lotin imperiyasi tugatildi  
 C) Xuloku tomonidan Bag'dod egallandi  
 D) "Muz ustida jang" bo'lib o'tdi
24. Botuhon tomonidan asos solingan Oltin O'rtta davlati qaysi hudutlarda tashkil topgan?  
 1. Dashti Qipchoq, 2. Volgabo'yi, 3. Janubiy kavkaz, 4. Shimoliy Qora dengiz sohillari, 5. Shimoliy Kavkaz, 6. Qirim, 7. Moldaviya, 8. Yettisuv  
 A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 8 C) 1, 2, 6, 8 D) 2, 4, 5, 7
25. Kiyev Rusida qaysi davrga kelib 15 ta mustaqil kinyazlik bo'lgan?  
 A) XII asr boshlari B) XI asr oxiri  
 C) XII asr o'rtalari D) XIII asr boshlari
26. Shayboniy Abdullaxon II ga hokimiyatni egallashda juda katta madad bo'lgan shayxni aniqlang.  
 A) shayx Abu Bakr Said Islom  
 B) shayx Muhammad Islom  
 C) shayx Muhammad Alixonto'ra  
 D) shayx Sulton Xo'jabuzrug
27. 1533-1540-yillar Buxoroda hukmronlik qilgan Ubaydulloxon kimning o'g'li bo'lgan?  
 A) Shohbudoq Sulton o'g'li Mahmud Sultonning  
 B) Abu Saidning o'g'li Sulton Mahmudning  
 C) Buxoro hukmdori Sulton Mas'ud Mirzoning  
 D) Ko'chunchi Sultonning
28. Quyidagilardan qaysi biriga "tabiblar iftixori" unvoni berilgan?  
 A) Kamoliddin Ibrohim B) Xoja Muhammad  
 C) Muhammad Mazid D) Qiyomiddin Shaydo
29. Abdullaxon II Beklarsoy darasidagi qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirgan edi. U qaysi tumanda joylashgan?  
 A) Kattaqo'rg'on B) O'ratepa C) G'uzor D) Nurota
30. Shayboniylar davriga oid "Mehmonnoma" Buxoro" asrining muallifini aniqlang?  
 A) Muhammad Husayini Buxoriy B) Muhammad Solix

- C) Hofiz tanish Buxoriy D) Fazlulloh ibn Rozbexxon
31. Afg'on qabilalari sardori Bahlul Lo'diy hukmronlik yillarini aniqlang.  
 A) 1451 - 1486-yillar  
 B) 1452 - 1488-yillm  
 C) 1456 - 1499-yillar  
 D) 1451 - 1489-yilld
32. "Akropol" bu . . .  
 A) "Mustahkam shahar" degan ma'noni bildirad  
 B) "Xushmanzara shahar" degan ma'noni bildiradi  
 C) "Yuqori shahar" degan ma'noni bildiradi  
 D) "Savdogarlar shahri" degan ma'noni bildiradi
33. Mo'g'ullar davrida oziq-ovqat solig'i nima deb atalgan?  
 A) "Kalon" C) "Qopchur"  
 B) "Targ'u" D) "Shulen"
34. 1422-yilda . . . .  
 A) Ulug'bek muomaladagi fulusiy pullar islohotini o'tkazdi  
 B) Jong-Fu boshliq Xitoy elchilari Samarqand va Hirotga keldilar  
 C) Temuriylar elchilari Xitoydan o'z vatanlariga qaytib keldilar  
 D) Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi
35. O'zbekxonning o'g'li Jonibek Oltin O'rdani qaysi yillarda boshqargan?  
 A) 1342 - 1357-yillar  
 B) 1345 - 1359-yillar  
 C) 1346 - 1356-yillar  
 D) 1348-1359-yillar
36. Appenin yarim orolining eng yirik oqar suv manbai qaysi daryo bo'lgan?  
 A) Po daryosi  
 B) Lena daryosi  
 C) Luara daryosi  
 D) Tibr daryosi

1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		
9		
10		
11		
12		
13		
14		
15		
16		
17		
18		
19		
20		
21		
22		
23		
24		
25		
26		
27		
28		
29		
30		
31		
32		
33		
34		
35		
36		